

Tashqi savdo aylanmasi


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport ko'rsatkichlari
- III. Import ko'rsatkichlari
- IV. Uslubiy ma'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar

I. Tashqi savdo aylanmasi

2025-yil yanvar-dekabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (TSA) 81,2 mlrd AQSH dollariga yetdi va 2024-yilga nisbatan 13 928,4 mln AQSH dollariga yoki 20,7 % ga ko'paydi.

Tashqi savdo aylanmasi
yanvar-dekabr, mln AQSH dollari



TSAda eksport hajmi 33 812,3 mln AQSH dollariga (2024-yilga nisbatan 24,0 % ga o'sdi) va import hajmi 47 354,5 mln AQSH dollariga (18,5 % o'sish) yetdi. Hisobot davrida tashqi savdo balansi 13 542,2 mln AQSH dollari miqdorida manfiy saldo bilan shakllandi.

**O‘zbekiston Respublikasining yirik hamkor davlatlar
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**
yanvar-dekabr, mln AQSH dollari

	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Xitoy	13 825,7	12 673,5	17 226,7
Rossiya Federatsiyasi	10 156,3	11 974,1	12 985,7
Qozog‘iston	4 485,6	4 462,1	4 969,6
Turkiya	3 161,1	3 037,6	3 024,5
Koreya Respublikasi	2 368,0	2 021,2	1 737,8
Afg‘oniston	867,5	1 138,0	1 678,5
Germaniya	1 072,3	1 253,4	1 427,7
Fransiya	995,4	1 141,7	1 377,3
Hindiston	761,0	988,1	1 317,7
BAA	721,5	821,8	1 255,2
Turkmaniston	1 095,9	1 149,7	1 203,7
Qirg‘iz Respublikasi	968,3	874,7	1 199,2
AQSH	765,1	1 024,9	1 004,0
Belarus	654,7	774,0	965,0
Tojikiston	760,9	702,4	912,3
Shveysariya	381,5	321,4	591,4
Eron	503,6	497,1	578,9
Italiya	514,4	458,9	468,9
Pokiston	387,3	407,5	445,9
Polsha	411,0	393,0	383,7

O‘zbekiston jahonning 210 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasining yuqori ulushi Xitoy (21,2 %), Rossiya (16,0 %), Qozog‘iston (6,1 %), Turkiya (3,7 %) va Koreya Respublikasi (2,1 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 71,1 % ni tashkil etib, jumladan, sanoat tovarlari (11,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (8,7 %), kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (6,3 %) va har xil tayyor mahsulotlar hissasi yuqori (5,0 %) bo‘ldi.

II. Eksport ko'rsatkichlari

yanvar-dekabr


Tarkibi	mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, %		Umumiy hajmga nisbatan, %	
	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.
Jami eksport	27 270,1	33 812,3	109,7	124,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2 175,0	2 944,7	122,4	135,4	8,0	8,7
Ichimliklar va tamaki	138,5	205,7	112,6	148,6	0,5	0,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	315,4	294,6	98,2	93,4	1,2	0,9
Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	1 307,6	1 476,2	139,0	112,9	4,8	4,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	43,5	56,6	3,1 b.	130,2	0,2	0,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 680,7	2 135,7	128,5	127,1	6,2	6,3
Sanoat tovarlari	4 175,8	3 988,4	103,1	95,5	15,3	11,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	1 201,1	1 161,5	92,0	96,7	4,4	3,4
Turli xil tayyor buyumlar	1 105,7	1 696,0	92,5	153,4	4,1	5,0
Boshqa tovarlar	7 555,1	10 092,5	92,2	133,6	27,7	29,8
<i>shu jumladan: nomonetar oltin</i>	<i>7 480,6</i>	<i>9 900,1</i>	<i>91,7</i>	<i>132,3</i>	<i>27,4</i>	<i>29,3</i>
Xizmatlar	7 571,7	9 760,4	134,2	128,9	27,8	28,9

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Eksport tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

O'zbekiston Respublikasining davlatlar kesimida eksporti hajmi

2025-yil yanvar-dekabr, mln AQSH dollari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlar Rossiya (12,8 %), Xitoy (7,3 %), Qozog'iston (4,6 %), Afg'oniston (4,5 %), Turkiya (3,4 %), Fransiya (2,6 %), Qirg'iz Respublikasi (2,3 %), BAA (2,1 %), Tojikiston (2,0 %) va Pokiston (1,0 %) kabi davlatlar bo'ldi. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 40,0 % dan ortiqni tashkil etdi.

XSST bo'yicha eksport tovarlar tarkibi
2025-yil yanvar-dekabr

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, %
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2 944,7	135,4
05	Sabzavotlar va mevalar	2 194,8	138,6
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	558,5	140,4
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	70,0	137,4
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	34,3	131,4
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	19,6	116,1
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	19,3	74,9
00	Tirik hayvonlar	16,6	2,1 b.
01	Go'sht va go'sht mahsulotlari	16,3	30,7
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	10,3	100,1
03	Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	4,9	2,2 b.
1	Ichimliklar va tamaki	205,7	148,6
12	Tamaki va tamaki mahsulotlari	106,3	125,7
11	Ichimliklar	99,4	184,4
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	294,6	93,4
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	79,8	67,7
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	71,2	98,6
28	Metall rudalari va metall parchalari	49,0	166,4
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	36,8	109,3
25	Qog'oz massasi va makulatura	28,1	86,0
22	Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	25,0	98,9
24	Probka va yog'och-taxtalar	2,7	125,2
23	Tabiiy kauchuk	2,1	90,5
3	Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	1 476,2	112,9
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	673,6	118,6
34	Tabiiy yoki sun'iy gaz	628,8	101,4
35	Elektr toki	168,7	145,6
32	Ko'mir, koks va briketlar	5,1	138,4
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	56,6	130,2
42	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	56,5	130,4
43	Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	0,1	94,5
5	Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	2 135,7	127,1
52	Noorganik kimyo moddalari	1 233,1	135,4
56	O'g'itlar	467,5	130,8
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	213,8	90,1
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	76,9	135,8
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	44,6	125,3
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	32,8	132,6

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, %
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	28,1	142,4
51	Organik kimyo moddalari	19,8	129,8
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	19,2	81,4
6	Sanoat tovarlari	3 988,4	95,5
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 695,4	85,1
68	Rangli metallar	1 439,0	96,5
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	293,9	135,8
69	Metallardan tayyorlangan buyumlar	213,5	133,3
67	Cho'yan va po'lat	202,2	115,5
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	52,2	103,2
61	Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	38,8	91,1
62	Boshqa joyda tasniflanmagan kauchuk mahsulotlar	27,9	121,3
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	25,4	99,9
7	Mashinalar va transport asbob-uskunolari	1 161,5	96,7
78	Avtomobillar (havo yostiqlarida harakatlanuvchilar ham) shu jumladan:	357,3	86,2
784	<i>avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	310,4	100,2
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	267,0	126,7
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	190,8	82,6
79	Boshqa transport uskunolari	131,0	99,9
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	83,2	115,8
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	67,5	86,1
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	51,1	97,6
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	9,4	112,7
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	4,2	148,9
8	Turli xil tayyor mahsulotlar	1 696,0	153,4
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	1 011,3	118,4
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	603,6	3,5 b.
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	23,2	119,7
85	Poyabzal	21,1	99,8
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	21,1	102,3
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	7,9	71,9
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	7,2	96,3
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyum, soat	0,6	59,4
9	Boshqa tovarlar	10 092,5	133,6
97	Oltin, monetar bo'lmagan (rudalari va konsentratlaridan tashqari)	9 900,1	132,3
93	Maxsus operatsiyalar va turlari bo'yicha tasniflanmagan tovarlar	192,4	2,6 b.


2025-yil yanvar-dekabr oylarida 2 162,7 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 6,2 % yoki 126,6 ming tonnaga oshdi.

Meva va sabzavotlar eksporti
yanvar-dekabr

	2024-yil		2025-yil	
	Miqdori, ming tonna	Mln AQSH dollari	Miqdori, ming tonna	Mln AQSH dollari
Jami	2 036,1	1 549,4	2 162,7	2 121,2
mevalar va rezavorlar	524,1	532,0	628,5	699,9
uzum	219,2	186,2	249,5	245,0
quritilgan uzum	53,5	79,4	113,1	143,8
shaftoli	103,5	96,9	111,6	105,2
gilos	34,5	73,4	34,3	72,5
xurmo	85,8	57,0	76,7	70,9
quritilgan olxo'ri	27,7	39,0	43,3	62,7
sabzavotlar	685,2	199,8	582,5	214,0
piyoz	349,6	68,0	319,0	90,1
karam	178,7	51,3	140,2	60,1
pomidor	48,5	46,3	45,2	36,0
sabzi	95,3	19,5	57,4	11,2
qalampir	6,4	8,9	12,4	11,0
bodring	6,7	5,6	8,4	5,5
tarvuz va qovun	156,5	37,1	233,6	57,5
veryong'oq va yong'oqlar	26,1	62,4	29,3	71,9
mosh	123,4	99,4	148,2	149,3
boshqa	520,7	618,9	540,5	928,5

2025-yil yanvar-dekabr oylarida 2 121,2 mln AQSH dollariga teng meva va sabzavotlar eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 36,9 % ga o'sdi va jami eksportdagi ulushi 6,3 % ni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti ulushi




2025-yil yanvar-dekabr oylari yakuni bo'yicha 2 632,5 mln AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 7,8 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 8,2 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari (54,3 %), ip kalava (27,0 %) asosiy ulushni egallagan.

Xizmatlar eksporti

2025-yil yanvar-dekabr oylari, mln AQSH dollari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Xizmatlar eksporti \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

2025-yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar eksporti hajmi 9 760,4 mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 28,9 % ini tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 28,9 % ga o'sdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (50,0 %), transport (33,0 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (9,4 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (3,0 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

III. Import ko'rsatkichlari

Ushbu davrga kelib import hajmi 47 354,5 mln AQSH dollariga yetdi va 2024-yilga nisbatan 18,5 % ga o'sdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (33,8 %), sanoat tovarlari (15,3 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (11,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, 2024-yilga nisbatan 6 794,2 mln AQSH dollariga ko'paydi va 42 083,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 5 270,6 mln AQSH dollariga yetdi.


O‘zbekiston Respublikasining importi tarkibi
yanvar-dekabr

XSST tarkibi	mln AQSH dollari		O‘sinh sur‘ati, %		Umumiy hajmga nisbatan, %	
	2024-y	2025-y	2024-y	2025-y	2024-y	2025-y
Jami import	39 968,3	47 354,5	103,4	118,5	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3 695,8	4 563,0	105,7	123,5	9,2	9,6
Ichimliklar va tamaki	251,3	341,4	131,2	135,8	0,6	0,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	1 195,7	1 550,4	106,3	129,7	3,0	3,3
Mineral yoqilg‘i, moylash materiallari va shunga o‘xshash materiallar	3 953,1	3 998,6	150,1	101,2	9,9	8,4
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	373,2	532,0	87,7	142,6	0,9	1,1
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	4 688,0	5 600,4	96,4	119,5	11,7	11,8
Sanoat tovarlari	6 055,1	7 258,4	95,8	119,9	15,1	15,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	13 548,6	15 995,9	90,7	118,1	33,9	33,8
Turli xil tayyor buyumlar	1 482,5	1 749,1	99,5	118,0	3,7	3,7
Boshqa tovarlar	46,4	494,7	51,1	10,7 b.	0,1	1,0
Xizmatlar	4 678,5	5 270,6	151,7	112,7	11,7	11,1

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:

[Import tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

O‘zbekiston Respublikasining davlatlar kesimida importi hajmi
2025-yil yanvar-dekabr, mln AQSH dollari



2025-yil yanvar-dekabr oylarida O‘zbekiston Respublikasi 180 dan ortiq davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar, jumladan, Xitoy (31,2 %), Rossiya (18,3 %), Qozog‘iston (7,2 %), Turkiya (4,0 %), Koreya Respublikasi (3,5 %), Germaniya (2,7 %) va Hindiston (2,4 %) jami importning 60,0 % dan ortig‘ini tashkil etdi.


XSST bo'yicha import tovarlar tarkibi
2025-yil yanvar-dekabr

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, %
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4 563,0	123,5
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 058,9	115,2
01	Go'sht va go'sht mahsulotlari	868,8	170,6
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	578,9	93,2
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	518,9	121,5
05	Sabzavotlar va mevalar	467,8	121,9
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	322,7	140,0
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	288,4	104,0
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	256,4	154,8
00	Tirik hayvonlar	144,7	121,2
03	Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	57,5	134,7
1	Ichimliklar va tamaki	341,4	135,8
11	Ichimliklar	222,9	135,3
12	Tamaki va tamaki mahsulotlari	118,5	136,8
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 550,4	129,7
24	Probka va yog'och-taxtalar	609,8	136,0
28	Metall rudalari va metall parchalari	428,2	113,9
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	118,3	141,0
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	99,6	129,8
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	91,9	180,9
22	Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	89,2	131,7
25	Qog'oz massasi va makulatura	62,4	112,2
23	Tabiiy kauchuk	50,4	139,8
21	Ishlov berilmagan terilar, teri xomashyosi va mo'yna	0,6	122,2
3	Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	3 998,6	101,2
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	2 014,4	102,2
334	Benzin (avtomobillar uchun)	1 554,8	105,8
34	Tabiiy yoki sun'iy gaz	1 659,8	98,8
32	Ko'mir, koks va briketlar	214,5	119,0
35	Elektr toki	109,9	90,2
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	532,0	142,6
42	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	468,7	148,9
43	Hayvonlar va o'simliklarning qayta ishlangan moylari va yog'lari, hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	62,1	108,7
41	Hayvonlarning yog'lari	1,3	100,6
5	Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	5 600,4	119,5
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 972,7	113,6
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	1 055,5	133,2
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	744,9	116,7
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	579,3	114,3
51	Organik kimyo moddalari	393,9	136,3

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, %
52	Noorganik kimyo moddalari	342,9	122,7
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	314,2	112,1
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	123,9	117,9
56	O'g'itlar	73,1	120,6
6	Sanoat tovarlari	7 258,4	119,9
67	Cho'yan va po'lat	3 122,4	117,1
69	Boshqa joyda tasniflanmagan metallardan tayyorlangan buyumlar	1 082,4	132,9
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	606,4	104,2
62	Rezina buyumlari	571,1	124,7
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	487,7	138,5
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	480,8	120,7
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	457,6	111,7
68	Rangli metallar	447,3	120,4
61	Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	2,8	140,9
7	Mashinalar va transport asbob-uskunalar	15 995,9	118,1
78	Avtomobillar (havo yostiqlarida harakatlanuvchilar ham)	3 679,2	110,4
781	asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan dvigatelli avtomobillar va boshqa transport vositalari	1 172,9	91,9
784	avtomobillarning qismlari va anjomlari	1 768,4	134,4
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	3 028,3	118,3
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	2 658,8	133,7
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	2 504,7	124,7
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	1 548,4	133,3
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalar	1 152,1	110,9
79	Boshqa transport uskunalar	733,9	102,4
	shu jumladan: samolyotlar va boshqa mexanik quvvatga ega uchish apparatlari (vertolyotlardan tashqari)	535,8	101,5
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	461,1	97,4
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	229,4	85,8
8	Turli xil tayyor mahsulotlar	1 749,1	118,0
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	555,4	114,2
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	520,2	117,4
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va mahkamlash moslamalari	240,2	141,3
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	199,0	128,1
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	139,9	103,3
85	Poyabzal	43,4	102,0
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	25,9	106,3
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyum, soat	25,1	98,8
9	Boshqa tovarlar	494,7	10,7 b.
97	Oltin, monetar bo'lmagan (rudalari va konsentratlaridan tashqari)	494,7	10,7 b.

2025-yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 5 270,6 mln AQSH dollarini yoki jami import hajmining 11,1 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 12,7 % ga oshdi.

Xizmatlar importi tarkibi
2025-yil yanvar-dekabr, mln AQSH dollari



Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:

[Xizmatlar importi \(xizmatlar turi bo‘yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar importi tarkibida asosiy ulush safarlar (49,0 %), transport xizmatlari (23,7 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (10,6 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog‘liq xizmatlar (6,2 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

IV. Uslubiy ma'lumotlar

Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash imkonini beradi. Tovarlar XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Bunda, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasi ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezidentdan norezidentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tmaydigan va bojxona deklaratsiyasida hisobga olinmaydigan belgilangan turdagi tovarlar bo'yicha statistika kuzatuvlari tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar manbasi hisoblanadi. Xizmatlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

Ba'zi hollarda, jami sonlar yig'indisi o'rtasidagi kichik tafovutlar ma'lumotlarni yaxlitlash bilan izohlanadi.

V. Aloqador boshqa havolalar

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi o'sish sur'ati \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(hududlar kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

[Import hajmi \(yillik\)](#)

[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

Chop etishga mas'ul:

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,

Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.

Elektron pochta: info@stat.uz

Tel.: 71-203-80-00 (1180, 1181)

